

2019-yilning yanvar-avgust oylarida QURILISH ISHLARI

Ragamlar:

Jami qurilish ishlari hajmi –
2 638,7 mlrd. so`m

O`tgan yilning mos davriga
nisbatan –
111,7 %

Nodavlat mulkchiligidagi
tashkilotlar –
2 483,9 mlrd. so`m

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar
–
154,7 mlrd. so`m


Joriy yilning yanvar - avgust oylarida Farg'ona viloyatida jami **2 638,7 mlrd. so`m** qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o'sish sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan **111,7 %** ni tashkil etdi.

Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **281,9 mlrd. so`mni** tashkil etdi.


O`tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur`ati **2,2** martaga o'sgan bo`lsa jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan keskin oshib - **5,5** punktga oshgan.




■ Yirik qurilish tashkilotlari



■ Norasmiy sektorlar



■ Kichik va mikrofirmalar



■ Jami qurilish ishlari



Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **281,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda **2,2** martaga ko'p ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **10,7%** ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan **5,5 %** punktga ko'paygan.


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **63,5 %**i to`g`ri kelib, ular hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **119,6 %**ni tashkil etgan holda **1 675,6** mlrd. so`m miqdorida qayd etildi.


Norasmiy sektor hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **-9,4 %** punktga kamayib, **25,8 %**ni tashkil etdi va **681,2** mlrd. so`m miqdorida qayd etildi. O'tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda **81,0 %**ni tashkil etgani kuzatildi.

Davlat va nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar bo'yicha qurilish ishlari

2019 yil (yanvar-avgutsut)

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **154,7** mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **5,9%** ni tashkil etdi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **2 483,9** mlrd.so'm ishlar bajarilib, jami qurilish ishlari hajmining **94,1%** ni tashkil etdi.



Faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari (*mld.so'mda*)


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi **3,1 %** ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,8 %** punktga ko'paygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **7,9 %** punktga ko'payib, **62,5 %** ni tashkil etdi.


Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **-9,7 %** punktga kamayib, **34,4 %** ni tashkil etdi.

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
(jamiga nisbatan % da)



Binolar va inshootlar qurish bo'yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **3,1 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **1,8 %** punktga ko`paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **62,5 %** (**7,9 %** punktga ko'paydi) va norasmiy sektorning ulushi **34,4 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **-9,7 %** punktga kamaydi.


Fuqarolik obyektlari qurish bo'yicha qurilish ishlari*(jamiga nisbatan % da)*

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **34,3 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **20,9 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **61,1 %** (-19,3 % punktga kamayish) va norasmiy sektoring ulushi **4,6 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **-1,6 %** punktga kamaygan.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **28,6 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **4,3 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **71,4 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **-4,3 %** punktga kamayish kuzatildi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari

Nº	Shahar tumanlar	2018 yil yanvar-avgust (mlrd, so'm)	2019 yil yanvar-avgust (mlrd, so'm)	O'tgan yilga nisbatan (%)	Jamiga nisbatan ulushi (%) da
Viloyat bo'yicha jami:		2638,7	2003,1	111,7	100,0
1	Farg'ona shahar	581,1	420,7	117,3	22,0
2	Qo'qon shahar	259,2	201,9	109,1	9,8
3	Quvasoy shahar	220,3	153,2	122,2	8,3
4	Marg'ilon shahar	234,5	155,3	128,1	8,9
5	Oltiariq tumani	122,7	66,9	155,1	4,6
6	Qo'shtepa tumani	113,1	88,3	108,1	4,3
7	Bag'dod tumani	98,0	124,4	66,9	3,7
8	Buvayda tumani	59,4	58,6	85,7	2,3
9	Beshariq tumani	101,3	50,3	170,6	3,8
10	Quva tumani	133,1	86,5	130,1	5,0
11	Uchko'prik tumani	97,5	91,4	90,6	3,7
12	Rishton tumani	50,5	48,1	88,9	1,9
13	So'x tumani	33,2	36,9	76,4	1,3
14	Toshloq tumani	61,0	57,9	89,2	2,3
15	O'zbekiston tumani	49,6	42,4	99,4	1,9
16	Farg'ona tumani	54,5	147,7	31,4	2,1
17	Dang'ara tumani	172,3	87,8	165,7	6,5
18	Furqat tumani	77,9	50,7	129,6	3,0
19	Yozyovon tumani	119,6	34,2	297,5	4,5


Jami qurilish ishlarida hududlarning ulushi
(jamiga nisbatan, % da)



O'z kuchi bilan bajarilgan jami qurilish ishlari hajmining eng yuqori hissasi viloyatning Farg'ona shahrida kuzatildi va jami qurilish ishlari hajmining **22,0** % ni tashkil etdi. Qo'qon shahrida **9,8%** ni, Marg'ilon shahrida esa **8,9%**, Quvasoy shahrida **8,3%**ni tashkil etdi. Shu bilan birga Dang'ara tumanida **6,5%**, Quva tumanida **5,0%**, Oltiariq tumanida esa **4,6%**, Yozyovon tumanida **4,5%**ni tashkil etdi. Shuningdek jami qurilish ishlari hajmida hissasi kam bo'lgan tumanlar xususan, So'x tumanida jami qurilish ishlari hajmining **1,3** %, Rishton tumanida **1,9%** ni, hamda O'zbekiston tumanida **1,9** % ni tashkil etdi.


Hududlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



Hudular bo'yicha qurilish ishlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori hissasi viloyatning Yozyovon tumanida **297,5** % kuzatilib jami qurilish ishlari hajmining **4,5** % ni tashkil qildi. Beshariq tumanida **206,8** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **3,8** % ni, Dang'ara tumanida **165,7** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **6,5** % ni, Oltiariq tumanida **155,1** %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **4,6** % ni, Furqat tumanida **129,6** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **3,0** % ni, Quva **130,1** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **5,0** % ni tashkil etdi. Shuningdek, Marg'ilon shahrida o'sish sur'ati **128,1** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **8,9** % ni tashkil etdi. Quvasoy shahrida **122,2** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **8,3** % ni tashkil etdi.

**Subyektlar turlari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi
(jamiga nisbatan %da)**



■ Yirik pudrat tashkilotlari ■ Kichik korxona va mikrofirmalar ■ Norasmiy sektor



Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi

"Investitsiyalar va qurilish statistikasi" bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

U.Karimov

Aloqa telefoni:

(0373) 241-72-75